

NEMRUT TOG‘I – QADIMIY SIVILIZATSIYALARNING UCHRASHGAN MASKANI**Mushtariybegim Xolmirzayeva***TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti**2-bosqich talabasi**Ilmiy rahbar: I. Xudoynazarov*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Nemrut tog‘i va undagi diniy hamda madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan ulkan xudolar va hayvonlar haykallari haqida so‘z boradi. Miloddan avvalgi davrlarga oid ushbu yodgorliklar qadimiy Kommagene qirolligiga tegishli bo‘lib, sharq va g‘arb madaniyatini birlashtiruvchi tarixiy meros hisoblanadi. Haykallar sharq va g‘arbiy terrasalarda joylashgan bo‘lib, ular diniy marosimlar uchun mo‘ljallangan. Maqolada Levkodike, Ahura Mazda-Zeus, Mitra-Apollon, Artagnes-Herakles kabi mifologik obrazlarning ramziy ma’nolari ham yoritilgan. Ushbu yodgorliklar qadimiy yunon va fors madaniyatlarining uyg‘unligini aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: Nemrut tog‘i, Kommagene qirolligi, diniy madaniyat, Ahura Mazda-Zeus, Mitra-Apollon, Artagnes-Gerakles, qadimiy haykallar, sharq va g‘arb uyg‘unligi, madaniy yodgorlik, tarixiy arxeologiya, Antiox I, Ariobarza, Kapadokya.

Turkiyaning janubi-sharqiy qismida, Adiyaman viloyati hududida joylashgan Nemrut tog‘i o‘zining tarixiy yodgorliklari va muhtasham haykallari bilan mashhurdir. Semsur (Nemrut nomi kurd tilida “o‘lmas” degan ma’noni anglatadi) hududida joylashgan Nemrut tog‘i diniy madaniyat markaziga aylangan. Nemrut tog‘ida qurilgan yodgorliklar ushbu mafkuraning mahsulidir. Bu ulkan inshoot miloddan avvalgi I asrda Kommagene podsholigi hukmdori Antiox I tomonidan barpo etilgan bo‘lib, u o‘zining maqbarasi va muqaddas ibodat maskani sifatida qurdirgan. Antiox I Kapadokya qiroli Ariobarzanning qizi bilan oila quradi. Tog‘ cho‘qqisidagi ulkan yodgorliklar 2150 metr balandlikda joylashgan Nemrut tog‘i cho‘qqisida mayda toshlardan tiklangan ulkan tūmūlūs (qabr tepaligi) mavjud. Uning balandligi 50 metr, diametri esa 150 metrni tashkil etadi. Ushbu hudud sharq va g‘arb madaniyatlarining uyg‘unlashganini aks ettiruvchi san’at asarlari bilan boyitilgan. Tog‘ cho‘qqisida ikkita asosiy maydon – Sharqiy va G‘arbiy teraslar joylashgan bo‘lib, har ikkisi ulkan haykallar bilan bezatilgan. Ushbu haykallar orasida yunon va fors xudolari, shuningdek, Kommagene podshosi Antiox I ning o‘zi ham mavjud. Antiox I Kommagenlarning eng mashhur qirollaridan biri edi. U mamlakatga yangi din olib kelishni maqsad qilgan edi. G‘arbliklarning ya’ni, yunonlarning dini bilan sharqiy

forslarning dinini birlashtirishni niyat qilgan edi¹. Nemrut cho‘qqisida ulkan xudolar va hayvonlarning haykallari mavjud. Diniy marosimlar uchun terrasalar va shaxsiy yodgorlik maqbarasi qurilgan. Quyosh chiqishi va botishi, sharq va g‘arbni birlashtirgan bu joyda haykallar sharqiy va g‘arbiy terrasalarda ketma-ket joylashgan. Haykallarning balandligi 8–10 metr orasida bo‘lib, toshdan yasalgan, o‘tirgan holatda va tartib bilan joylashtirilgan². Haykallar yonida osmonga himoyachi sifatida burgut, yerni himoya qiluvchi sifatida esa sher tasvirlangan. Kommagene podsholigi o‘z nomi bilan “turli xalqlarning birlashuvi” ma’nosini anglatar edi. Podsho Antiox I sharq va g‘arb madaniyatlari o‘rtasida muvozanatni saqlashga intilib, ikkala madaniyatning xudolarini bir joyda aks ettirgan. Masalan, haykallar orasida Zeus (yunon), Oromasdes (fors), Apollon (yunon), Mithras (fors), Herakl (yunon) va Artagnes (fors) kabi ilohiy shaxslar nomlari birlashtirilgan. Antiox I o‘zini ham xudo deb e’lon qilib, o‘z haykalini ham shu qatorga qo‘shgan. Ushbu san’at asarlari Kommagene podsholigining sharq va g‘arb o‘rtasida mustaqillik saqlashga bo‘lgan urinishlarini ko‘rsatib turadi. Nemrut tog‘ining sirli astronomik yulduz xaritasi Nemrut tog‘ida joylashgan eng sirli san’at asarlaridan biri – shoh aslan (sher) tasviridir. Bu haykalning o‘ziga xos jihati shundaki, uning bo‘ynida yarim oy, gavdasida 19 ta yulduz, yuqori qismida esa uchta katta yulduz (Mars, Yupiter, Venera) tasvirlangan. Tadqiqotchilar ushbu tasvir qadimgi yulduz xaritasi (horoskop) ekanligini va unda miloddan avvalgi 7-iyul, 62-yil sanasi aks etganligini ta’kidlaydilar. Ushbu sana Antiox I ning taxtga chiqish sanasiga mos kelishi mumkin deb taxmin qilinadi. UNESCO himoyasidagi madaniy meros 1987-yilda Nemrut tog‘i UNESCO Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritildi va bu hudud milliy bog‘ sifatida e’lon qilindi. Hozirgi kunda u nafaqat tarixiy va diniy ahamiyatga ega joy, balki dunyodagi eng go‘zal quyosh chiqishi va botishini kuzatish mumkin bo‘lgan maskanlardan biri hisoblanadi. Bu yodgorlik Kommagene podsholigining madaniy merosi, sharq va g‘arb uyg‘unligining timsoli hamda tarixiy sirlarni o‘zida saqlab qolgan noyob maskan sifatida qadrlanadi. Nemrut tog‘ida joylashgan haykallar orasida hukmdor sharafiga o‘rnatilgan yodgorlikdan tashqari yana to‘rtta muhim haykal mavjud. Ulardan biri – Gerakl haykalidir. Yunon mifologiyasida mashhur qahramon sifatida tanilgan Gerakl Kommagene madaniyatida Ares va Artagnes nomlari bilan ham eslatib o‘tiladi. Rivoyatlarga ko‘ra, u Yunon xudosi Zevsning o‘g‘li hisoblangan. Favqulodda jismoniy kuchi bilan ajralib turuvchi Heraklga qadimgi afsonalarda o‘ta murakkab 12 ta sinov topshirilgan. Ushbu obraz asosan qudrat, sabr va bardoshlilik ramzi sifatida qaraladi. Nemrut tog‘ida joylashgan haykallar orasida muhim ilohiy obrazlardan biri – Apollon haykalidir. Bu xudo qadimgi Yunon madaniyatida san’at, ilm va musiqa homiysi sifatida tanilgan. Eron

¹ Önay Yılmaz. Türkiye ve Türkler hakkında doğru bildiğimiz yanlışlar. 2008. S-254.

² İbrahim Tikan. Antik Kürdistan ve Dünya Tarih, Na Yayınları. 2021. S-183.

mifologiyasida esa u Mithras nomi bilan ma'lum bo'lib, quyosh va adolat ilohisi sifatida ulug'langan. Antiox I ning ushbu haykallarni qurdirishdan maqsadi, ikki madaniyatni birlashtirish va xudolarining hurmatli ekanligini isbotlash bo'lgan³. Terassada Antiox I ning 237 satrlik vasiyatnomasi ham topilgan. Ushbu vasiyatnomada qirol Antiox I o'zining dindor bir qirol bo'lganligini, shu sababli hamma ishlarning uddasidan chiqqanligini aytgan⁴. Ushbu xudoga bag'ishlangan ulkan haykal Nemrut tog'ining tepasida joylashgan bo'lib, qadimgi diniy e'tiqodlarning uyg'unligini namoyon etadi. Nemrut tog'idagi haykallar qanday kashf etilgan? Adiyaman viloyatida joylashgan 2150 metr balandlikdagi Nemrut tog'ining cho'qqisidagi ulkan haykallar qanday topilgani haqida bilasizmi? Bu haykallarni kashf etish tarixi juda qiziq va hayratlanarlidir. Nemrut tog'i odatda quyosh chiqishi va botishi bilan bog'liq manzara sifatida tasavvur qilinadi, lekin aslida bu yer arxeologiya tarixidagi eng muhim haykallar joylashgan maskan sanaladi. Ularning kashf etilishi esa 1881-yilda nemis muhandisi Karl Sester nomi bilan bog'liq. Karl Sester temir yo'l qurilishi bilan shug'ullanar ekan, mahalliy aholining Nemrut cho'qqisidagi g'aroyib yodgorliklar haqidagi gaplariga qiziqib qoldi. U bu mish-mishlarni tekshirib ko'rishga qaror qildi va tog' cho'qqisiga qiyin safar uyushtirdi. U yerda u titanik o'lchamdagi haykallar va ulkan bir qabrtosh (tumulus) borligini ko'rib, Germaniya rasmiylariga darhol xabar berdi. Karl Sester bu joyning arxeologik kashfiyot uchun mislsiz ahamiyatga ega ekanini tushungan edi. U Germaniyaga xat yo'llab, ushbu hududni batafsil o'rganish uchun mutaxassislar jamoasini yuborishni talab qildi. Nemrut tog'idagi sirli yodgorliklar va arxeologlarning dastlabki reaksiyalari Sesterning chaqirig'idan so'ng 1882-yilda arxeolog Otto Puchstein boshchiligidagi ekspeditsiya Nemrut tog'iga yo'l oldi. Puchstein cho'qqiga yetib borgach, hayratini quyidagi so'zlar bilan ifodalagan: "Ko'z o'ngimda paydo bo'lgan manzara meni hayratga soldi. Eng baland qoyali cho'qqi ustida, yana bir tepalik joylashgandek ko'rinardi. Ulkan platforma ustida esa o'ziga xos kiyimlarda tasvirlangan beshta iloh haykali bor edi." Bu ulkan haykallar yunoncha uslubda ishlangan bo'lsa ham, ularning kiyimlari va bosh kiyimlarida Fors va Ermaniston madaniyati ta'siri sezilar edi. Dastlab, bu yodgorliklar Assur sivilizatsiyasiga oid bo'lishi mumkin deb taxmin qilindi. Lekin, haykallar o'rnatilgan taxtlarning orqa tomoniga nazar tashlaganlarida, qadimgi yunon yozuvi bilan o'yilgan yozuvlarni uchratishdi. Bu yozuvlar Kommagene podshosi I. Antiochos sharafiga bag'ishlangan bo'lib, haykallarda yunon va fors ilohlari aks ettirilgan edi. Shunday qilib, Nemrut tog'idagi sir ochildi va bu joy qadimgi Kommagene podsholigining diniy va siyosiy ramzi bo'lib xizmat qilganligi aniqlandi. Nemrut tog'ining bugungi ahamiyati. 1987-yilda UNESCO Nemrut tog'ini Butunjahon madaniy merosi

³ Emrullah Fatış. Arkeolojik Tanrı Algıları ve Kur'an. Eğitim Yayınevi. 2018. s-244

⁴ Abdullah Karaman. Türkiye'nin UNESCO Değerleri ve Turizm Potansiyeli. Eğitim Yayınevi. 2018.s-79.

ro'yxatiga kiritdi va u hozir Turkiyaning eng muhim tarixiy yodgorliklaridan biri sifatida himoya qilinmoqda. Haykallar qadimgi sivilizatsiyalar o'rtasidagi madaniy bog'liqlikning beqiyos namunasi bo'lib, bugungi kunda ham tarix va arxeologiya ixlosmandlarini hayratga solishda davom etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Nemrut tog'i yodgorliklari madaniy uyg'unlikning boy merosidir. Nemrut tog'i nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki sayyohlar uchun ham diqqatga sazovor joylardan biri hisoblanadi. Ushbu yodgorliklar qadimiy madaniyatlarning boy merosini namoyish etadi va bugungi kunda ham o'zining sirli va jozibadorligi bilan ko'plab tadqiqotchilar va sayyohlarni jalb etadi. Haykallarning tarixiy ahamiyatiga keladigan bo'lsak, ushbu haykallar orqali tarixning turli yordamchi sohalari bir qancha boy manbalarga ega bo'lib kelmoqda. Bu kabi qadimiy va qimmatli ma'lumotlar sharq sivilizatsiyasining naqadar boy va uzoq yillik o'tmishga ega ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Önay Yılmaz. Türkiye ve Türkler hakkında doğru bildiğimiz yanlışlar. 2008. S-254.
2. İbrahim Tikan. Antik Kürdistan ve Dünya Tarih, Na Yayınları. 2021. S-183.
3. Emrullah Fatiş. Arkeolojik Tanrı Algıları ve Kur'an. Eğitim Yayınevi. 2018. s-244
4. Abdullah Karaman. Türkiye'nin UNESCO Değerleri ve Turizm Potansiyeli. Eğitim Yayınevi. 2018.s-79
5. <https://kahtaturizmdanismaburosu.ktb.gov.tr/TR-150100/nemrut-dagi.html>